

## HALOL STANDARTLARINING MAZMUN-MOHİYATI, ASOSIY TALABLARI VA IJTIMOİY-IQTISODIY TUSHUNCHALARI

**Azizova Saodat Xabibulloyevna**

Buxoro davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [saodatazizova01@gmail.com](mailto:saodatazizova01@gmail.com)

ORCID: 0009-0008-1849-0059

### Annotatsiya

Mazkur maqolada halol standartlarining mazmun-mohiyati tahlil qilinib, ularga belgilangan talablar ilmiy asosda o'rganib chiqilgan va muhim ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalar muallif tomonidan tavsiflangan. Shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti (OIC) huzuridagi Islom mamlakatlari uchun Standartlar va Metrologiya Instituti (SMIIC) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar o'rganilib, joylashtirish vositalarining A, B, C toifalari hamda ovqatlantirish shoxobchalariga qo'yilgan talablar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ziyorat, turizm, standart, ziyorat turizmi, halol turizm, halol turizm standarti, xizmat ko'rsatish, sayohat paketlari, infratuzilma, halol oshxona, halol mehmonxona.

### Аннотация

В данной статье анализируется сущность стандартов халяль, на научной основе изучаются установленные к ним требования и автором описываются важные социально-экономические понятия. Также были изучены международные стандарты, разработанные Институтом стандартов и метрологии для исламских стран при Организации исламского сотрудничества (ОИС), проанализированы категории А, В, С средств размещения и требования к предприятиям общественного питания.

**Ключевые слова:** паломничество, туризм, стандарт, паломнический туризм, халяльный туризм, стандарт халяльного туризма, обслуживание, туристические пакеты, инфраструктура, халяльная кухня, халяльная гостиница.

### Abstract

In this article, the essence of halal standards is analyzed, the requirements established for it are studied on a scientific basis, and important socio-economic concepts are described by the author. Also, international standards developed by the Institute of Standards and Metrology for Islamic Countries (SMIIC) under the Organization of Islamic Cooperation (OIC) were studied, and requirements for categories A, B, C of accommodation facilities and catering establishments were analyzed.

**Keywords:** pilgrimage, tourism, standard, pilgrimage tourism, halal tourism, halal tourism standard, service, travel packages, infrastructure, halal cuisine, halal hotel.

## KIRISH

Dunyo miqyosida halol mahsulotlarga doir turli milliy standartlar shakllantirilgan bo‘lib, ularning eng nufuzlilari sifatida Malayziya, Indoneziya, Singapur, Bruney, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti huzuridagi Islom mamlakatlari uchun Standartlar va Metrologiya Instituti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarni keltirib o‘tish mumkin.

Boshqa mintaqalarda, xususan, Yevropa va Amerika davlatlarida halol sertifikatlash amaliyoti ko‘pincha ushbu ilg‘or mamlakatlar tajribasi asosida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bunda halol mahsulotlarni tasdiqlovchi sertifikatlar odatda xalqaro akkreditatsiya tizimlariga ega bo‘lgan yoki ular bilan hamkorlik qiluvchi halol sertifikatlash tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi.

Turli mamlakatlardagi standartlar va sertifikatlash mexanizmlarining mavjudligi global halol mahsulotlar bozori ishtirokchilari uchun tanlov imkoniyatini kengaytiradi. Biroq ularning uyg‘unlashtirilishi masalasi bugungi kunda istiqbolli va dolzarb yo‘nalish sifatida saqlanib qolmoqda.

Islom mamlakatlari Standartlar va Metrologiya Instituti hukumatlararo tashkilot bo‘lib, u Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlar hududida yagona standartlarni joriy etishni maqsad qilgan. Institutning asosiy vazifalari — iste‘molchilarni himoya qilish, mahsulotlarning o‘zaro mosligini ta‘minlash, OICga a‘zo davlatlarning global iqtisodiyotdagi bozor pozitsiyalarini mustahkamlash, shuningdek, innovatsiyalarni va erkin savdo tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Olimlar A. Abdallah, M. A. Rahem hamda A. Pasqualone [1] halol standartlarining xilma-xilligi masalasini o‘rganib, bu holat ayniqsa o‘z mahsulotlarini Islom diniga e‘tiqod qiluvchi davlatlarga eksport qilishni istagan G‘arb davlatlari ishlab chiqaruvchilari uchun chalkashlikka sabab bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlagan. Tadqiqotchilar aynan halol standartlaridagi ushbu xilma-xillikning sabablarini tahlil qilgan hamda vaqt o‘tishi bilan ularni muvofiqlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan urinishlarni ilmiy asosda ko‘rib chiqqan.

J. Akbar, M. Gul, M. Jahangir, M. Adnan, S. Saud, S. Hassan, T. Nawaz hamda Sh. Fahad yondashuvlari ham yuqoridagiga o‘xshash bo‘lib, ularning fikricha: “halol standartlarining dunyo bo‘ylab turlicha bo‘lishi bu sohaga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Turli halol sertifikatlash tashkilotlari mahsulotlarni tasdiqlashi mumkin, ammo ular ko‘pincha xalqaro standartlardan ko‘ra milliy qonunchilikni ustuvor deb hisoblaydi” [2].

E‘tiborlisi, mazkur tadqiqotchilar halol standartlaridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash maqsadida quyidagi yirik tashkilotlar va mamlakatlar standartlariga asoslangan adabiyotlar tahliliga tayangan tanqidiy tahlil o‘tkazishgan: Pokiston halol standartlari, Islom mamlakatlari uchun Standartlar va Metrologiya Instituti, Singapur

Islom diniy kengashi (MUIS), Indoneziya Ulamolar majlisi (MUI), Fors koʻrfazi standartlashtirish tashkiloti (GSO), Malayziya Islom taraqqiyot boshqarmasi (JAKIM), ASEAN umumiy yoʻriqnomasi, shuningdek Tailand, Eron va Bruney mamlakatlarning halol standartlari.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqot ishida halol standartlari va halol turizm xizmatlari tizimini oʻrganishda kompleks va koʻp qirrali metodologik yondashuv qoʻllanilgan. Avvalo, tizimli-tahliliy yondashuv asosida halol standartlarning asosiy talablari — shariatga muvofiqlik, harom komponentlardan xoli boʻlish, halol soʻyish, sertifikatlash, kontaminatsiyadan muhofaza qilish, yorliqlash va xizmat sifati kabi omillar oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali halol xizmatlar zanjirida yuzaga keladigan ehtimoliy ziddiyatlar va zanjir uzilishlarining sabablarini aniqlashga erishildi.

Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil usuli orqali OIC/SMIC, JAKIM, MUIS, MUI kabi xalqaro sertifikatlash tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan standart hujjatlar tahlil qilinib, bu orqali halol turizmda amal qilinadigan asosiy huquqiy va shariat meʼyorlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil ham muhim oʻrin egallab, Malayziya, Indoneziya, Singapur, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Yevropa va AQSH kabi mamlakatlarda amal qilayotgan halol standartlar oʻzaro solishtirilgan. Ular orasidagi mavjud farqlar va oʻxshashliklar aniqlanib, global miqyosda muvofiqlashtirish zaruriyati asoslab berildi.

Empirik adabiyotlar tahlili orqali halol standartlari va turizm xizmatlari boʻyicha xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy izlanishlar, xususan, A. Abdallah, M. A. Rahem, A. Pasqualone, J. Akbar[1] va boshqa mualliflarning tadqiqotlari asosida halol sanoatida mavjud ilmiy yondashuvlar chuqur oʻrganildi. Kritik (tanqidiy) tahlil orqali esa hozirda “halol turizm” nomi ostida faoliyat yuritayotgan, biroq halol meʼyorlariga toʻliq javob bermaydigan obyektlar faoliyatidagi kamchiliklar ochib berildi.

Natijada, tavsiyaviy-metodik yondashuv orqali Oʻzbekistonda halol turizmni rivojlantirish, xalqaro standartlarni milliy amaliyotga tatbiq etish, sertifikatlash tizimini takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqotning ilmiy-metodik asosi sifatida halol tamoyillari nafaqat diniy talab sifatida, balki gigiyena, isteʼmolchi huquqlari va barqaror turizm infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida tahlil etildi.


## **TAHLIL VA NATIJALAR**

OIC tomonidan ishlab chiqilgan halol turizm xizmatlari asosiy talablari standartlari musulmon sayohatchilarga taqdim etilayotgan mahsulot va koʻrsatilayotgan xizmatlarning islomiy qoidalarga muvofiqligini taʼminlash maqsadida ishlab chiqilgan. Standartning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat (1-rasm):

a) Tashkilotlar yoki shaxslarning halol turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish hamda boshqarish boʻyicha salohiyatini oshirish.

b) Turizm mahsulotlari va xizmatlarini islomiy meʼyorlarga muvofiq holda taqdim etilishini taʼminlash.

- c) Halol turizm mahsulotlari va xizmatlarining halolligini ushbu standartni samarali qo‘llash orqali saqlash va himoya qilish.
- d) Mijozlarning talablarini qondirish orqali ularning qoniqish darajasini oshirish (1-rasm).



**1-rasm. Halol turizm xizmatlari muhim talablari standartining asosiy maqsadlari [5]**

Ushbu standartda halol turizm xizmatlari va infratuzilmalari quyidagi toifalarga bo‘lingan:

a) joylashtirish xizmatlari:

1.A toifa – halol turizmning ilg‘or xizmatlari mavjud bo‘lgan turar joy obyektlari

2.B toifa – halol turizmning o‘rta darajadagi xizmatlari mavjud bo‘lgan turar joy obyektlari;

3.C toifa – halol turizmning asosiy xizmatlari mavjud bo‘lgan turar joy obyektlari

b) sayohat paketlari – islomiy qoidalarga muvofiq holda tuzilgan, halol xizmatlarni o‘z ichiga olgan turli marshrutlar va dasturlarni qamrab oluvchi tur paketlar;

c) gid xizmatlari – diniy va madaniy ehtiyojlarga mos, musulmon sayyohlar uchun moslashtirilgan gid xizmatlari;

d) boshqa xizmatlar va infratuzilmalar – ovqatlanish (katering), restoranlar, sogʻlomlashtirish va spa markazlari, sogʻliqni saqlash muassasalari va boshqa xizmat turlarining barchasi halol meʼyorlarga muvofiq boʻlishi kerak [5].

Tadqiqotlar natijasida halol standartlarining asosiy 10 ta talablari aniqlashtirildi. Bular: shariatga muvofiqlik, harom sanalgan komponentlardan xoli boʻlish, halol soʻyish talablari, poklik va foydalilik, halol sertifikatlash, izchillik va kuzatuvchanlik, kontaminatsiyadan muhofazalash, yorliqlash va reklama, malakali xodimlar va ichki audit hamda monitoring tizimi (1-jadval).

## 1-jadval

**Halol standartlarining asosiy talablari[5]**

T/r	Talab nomi	Tavsifi	Manba
1	Shariatga muvofiqlik	Mahsulot yoki xizmat Qurʼon va hadislar asosidagi shariat qonunlariga toʻliq mos boʻlishi shart.	Qurʼoni Karim; hadislar; OIC/SMIIC 1:2019
2	Harom sanalgan komponentlardan xoli boʻlish	Tarkibida choʻchqa, spirt, oʻlik hayvon, qon yoki najosatli modda boʻlmasligi kerak.	OIC/SMIIC 1; JAKIM MS 1500:2019
3	Halol soʻyish talablari	Soʻyish musulmon kishi tomonidan, Bismillah aytilgan holda, hayvonga ozor bermasdan amalga oshiriladi.	OIC/SMIIC 1:2019; FAO/WHO Codex Alimentarius CAC/GL 24-1997
4	Poklik va foydalilik	Mahsulot faqat halol boʻlishi emas, balki gigiyenik, toza, sogʻlom va foydali boʻlishi kerak.	Qurʼon (2:168); JAKIM MS 1500:2019
5	Halol sertifikatlash	Mahsulotlar akkreditatsiyalangan Halol Sertifikatlash Tashkiloti tomonidan tekshirilgan boʻlishi kerak.	SMIIC 2:2019; GSO 2055-2:2015
6	Izchillik va kuzatuvchanlik	Ishlab chiqarishdan tortib isteʼmolchilargacha boʻlgan zanjirda mahsulotning halolligi kafolatlanishi lozim.	OIC/SMIIC 9:2021 (Halal Logistics); ISO 22000
7	Kontaminatsiyadan muhofazalash	Halol mahsulotlar harom yoki shubhali moddalardan alohida saqlanishi lozim.	JAKIM; MUI; MUIS; GSO 993:2015
8	Yorliqlash va reklama	Halol mahsulotlar tegishli logotip bilan aniq, notoʻgʻri talqin qilinmaydigan tarzda belgilanishi kerak.	SMIIC 3:2021; CAC/GL 24-1997
9	Malakali xodimlar	Ishlab chiqarish va tekshirishda ishtirok etuvchi mutaxassislar shariat va gigiyena boʻyicha maxsus tayyorgarlikka ega boʻlishi kerak.	SMIIC 2:2019; JAKIM Halal Training Module
10	Ichki audit hamda monitoring tizimi	Halol tizimlar doimiy ravishda ichki nazorat va auditlar orqali tekshirib borilishi shart.	ISO 19011; OIC/SMIIC 2:2019

Islom hamkorlik tashkilotiga koʻra, halol turizm xizmatlarini taklif qiluvchi muayyan tashkilotlarning faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi talablar bajarilishi shart [5]:

a) Turar joy binosida tayyorlanadigan va taqdim etiladigan halol taomlar hamda ichimliklar bilan bog‘liq bo‘limlarda qo‘llaniladigan qoidalar OIC/SMIIC 1 standartiga muvofiq bo‘lishi kerak.

b) Sanitariya va gigiyena uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalar va vositalar halol sektor talablariga javob berishi lozim. Oziq-ovqat bilan aloqador har qanday jihozlar va xodimlar sanitariya-gigiyena talablariga mos bo‘lishi shart.

c) Vannaxona, hojatxona va dush kabinalarida ishlatiladigan sovun, shampun va boshqa tozalovchi vositalar OIC/SMIIC 4 standartiga mos bo‘lishi kerak.

d) Turar joy hududida spirtli ichimliklar taqdim etilishi taqiqlanadi, shuningdek, tashqaridan olib kirilgan spirtli ichimliklarga ham ruxsat berilmaydi.

e) Turar joyda joylashgan har qanday xizmat ko‘rsatish bo‘limlarida (shu jumladan savdo nuqtalarida) harom sanaluvchi mahsulotlar (masalan, cho‘chqa go‘shti mahsulotlari, spirtli ichimliklar va boshqalar) mavjud bo‘lmasligi kerak. Agar mehmonlar yoki boshqa shaxslar bunday mahsulotlarni tashqaridan olib kirishga urinsa, ularni hududga kiritishga ruxsat berilmaydi. Ovqat tayyorlash, qayta ishlash, tashish va saqlash jarayonlarida taomlarning harom mahsulotlar bilan ifloslanmasligi qat’iy ta’minlanishi lozim. Ovqat va ichimliklarga oid talablar OIC/SMIIC 1 standartiga muvofiq belgilanadi.

f) Spa, tibbiy xizmatlar, do‘konlar, sartaroshxona va boshqa xizmatlar — agar ular subpudratchi (tashqi ijrochi) kompaniyalar tomonidan ko‘rsatilgan taqdirda ham — ushbu standart talablari ularga nisbatan to‘liq tatbiq etiladi. Mehmonxona ma’muriyati subpudratchilar tomonidan belgilangan standartlarga rioya etilishini ta’minlashi shart.

g) Mehmonxona ro‘yxatdan o‘tkazish (check-in) jarayonida quyidagi axborotlar mehmonlarga taqdim etilishi shart:

#### 1. Mehmonlar uchun ma’lumotlar

1.1. Mavzuning nozikligi va halol xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxona xususiyatlarini inobatga olgan holda, ro‘yxatdan o‘tish jarayonida quyidagi ma’lumotlar mehmonlarga yetkazilishi lozim:

a) Sohil hududida joylashgan mehmonxonalarda sohil qonunchiligiga muvofiq erkaklar va ayollar uchun alohida yopiq (maxfiy) zonalar tashkil etib bo‘lmagani sababli, shaxsiy ehtiyot choralari har kim o‘zi ko‘rishi lozim;

b) Mehmonlarning shaxsiy daxlsizligini muhofaza qilish maqsadida ayollar uchun ajratilgan bassetyn, hammom (turk hammomi), spa, massaj xonalari kabi joylarda suratga olish, video yoki audio yozuvga olish qat’iyan taqiqlanadi;

c) Mehmonlar halol xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxona hududiga spirtli ichimlik olib kirmasliklari va mast holatda mehmonxonaga kelmasliklari bo‘yicha yuqori darajada e’tiborli bo‘lishlari kerak;

d) Isrofgarchilik qilish islomda ma’qullanmagan bo‘lib, mehmonlar bundan tiyilishlari zarur;

e) Qibla yo‘nalishi ko‘rsatilgan joy (masalan, shkafda yoki shiftda) va namoz o‘qish xonasi joylashgan nuqtalar haqida mehmonlarga aniq axborot taqdim etilishi lozim;

f) Mehmonxona ichki qoidalari keng jamoatchilikning umumiy islomiy tushunchalariga asoslangan holda belgilangan bo‘lib, mazhablar orasidagi tafovutlar inobatga olinmaydi — bu haqda mehmonlarga tushuntirish beriladi;

g) Mehmonlar islomiy axloqqa zid harakatlarni amalga oshirmasliklari (kiyinish madaniyati ham buni o‘z ichiga oladi) va islomiy qadriyatlarga zid bo‘lgan talablarni ilgari surmasliklari lozimligi xususida ogohlantiriladi.

2. Keltirilgan ma‘lumotlar mehmonlarga quyidagi usullardan biri yoki bir nechta orqali yetkazilishi mumkin:

a) Mehmonlar uchun axborot kartasi;

b) Qisqa seminar, film namoyishi yoki taqdimot shaklida tushuntirish;

c) Mehmonxonaning umumiy nuqtalarida joylashtirilgan axborot panolari yoki muntazam axborotlar namoyish etiladigan LCD ekranlardagi e‘lonlar;

d) Mehmonxonadagi umumiy hududlar va xonalarda joylashtirilgan broshyura yoki bannerlar orqali.

Bugungi kunda halol mehmonxona biznesida duch kelinayotgan eng katta muammolardan biri shundan iboratki, islomiy tamoyillarga to‘liq rioya qiluvchi mehmonxonalar bilan bir qatorda, ularga to‘laqonli rioya etmaydigan joylashtirish vositalari ham “halol” yoki “islomiy mehmonxona” sifatida o‘z xizmatlarini bozorga taqdim etishmoqda. Mazkur holat esa ushbu yo‘nalishda huquqiy standartlarning mavjud emasligi sababli yuzaga kelmoqda. Jumladan, ayrim mehmonxonalar faqat spirtli ichimliklar taqiqlangani va ibodat qilish nuqtalari mavjudligi tufayli o‘zlarini islomiy mehmonxona deb atashayotganlari bilan izohlanadi [4].

Quyida A kategoriyadagi ilg‘or darajadagi joylashtirish vositalari uchun Islom hamkorlik tashkiloti huzuridagi Islom mamlakatlari uchun Standartlar va Metrologiya Instituti tomonidan belgilangan talablar keltirilgan (2-jadvalga qarang). Unga ko‘ra, A kategoriyadagi joylashtirish vositalarida halol oshxona, halol restoran, halol taom, tahorat uchun suv bilan ta‘minlangan hojatxona, namoz xonasi yoki masjid, ramazon uchun saharlik va iftorlik tashkil etish, bolalar o‘yin xonasi, erkaklar va ayollar uchun alohida ajratilgan zonalar (basseynlar, spa va boshqalar), dam olish zonolari, sayyohlar uchun turistik xizmatlar, qibla yo‘nalishi belgisi, namoz vaqtlari jadvali, joynamozlar, OIC/SMIIC 4 standartiga muvofiq tozalash vositalari (sovun, shampun va boshqalar), mehmonlar tomonidan talab qilinganda Qur‘on nusxasi taqdim etilishi va mehmonlarning daxlsizligi ta‘minlanishi shart qilib belgilangan (2-jadval).

**2-jadval**

**A, B, C kategoriyadagi joylashtirish vositalari uchun belgilangan talablar[5]**

T/r	Xizmatlar	Majburiy	Taqiqlangan
1	Halol oshxona	✓	
2	Halol restoran	✓	
3	Uy hayvonlari		✓
4	Halol taom	✓	
5	Mini-bar ichidagi spirtli ichimliklar		✓
6	Mehmonxona restoranida spirtli ichimliklar		✓

T/r	Xizmatlar	Majburiy	Taqiqlangan
7	Kattalar uchun kanallar (TV)		✓
8	Xonada hayot manzaralari yoki hayvon tasviri aks etgan san'at asarlari		✓
9	Tahorat uchun suv bilan ta'minlangan hojatxona	✓	
10	Namoz xonasi / masjid	✓	
11	Ramazon uchun saarlik va iftorlik tashkil etish	✓	
12	Bolalar o'yin xonasi	✓	
13	Erkaklar va ayollar uchun alohida ajratilgan zonalar(basseynlar, spa va boshqalar)	✓	
14	Dam olish zonalari	✓	
15	Sayyohlar uchun turistik xizmatlarning mavjudligi	✓	
16	Qibla yo'nalishi belgilangan bo'lishi	✓	
17	Namoz vaqtlari jadvali	✓	
18	Joynamozlar	✓	
19	Kazino yoki qimorxonalar		✓
20	Tungi klub		✓
21	Diskoteka		✓
22	Spirтли ichimliklar		✓
23	OIC/SMIIC 4 standartiga muvofiq tozalash vositalari (sovun, shampun, va h.k.)	✓	
24	Talab bo'lganda Qur'on nusxasi	✓	
25	Mehmonlarning maxfiyligini(daxlsizligini) ta'minlanishi	✓	

**B kategoriyadagi joylashtirish vositalariga qo'yilgan talablar**

T/r	Xizmatlar	Majburiy	Taqiqlangan
1	Halol taom	✓	
2	Halol oshxona	✓	
3	Minibar ichidagi spirtli ichimliklar (iltimos asosida olib tashlash)	✓	
4	Qibla yo'nalishi belgisi	✓	
5	Mahalliy halol restoranlar ro'yxati va masjidlarga yo'riqnomalar	✓	
6	Joynamozlar	✓	
7	HTS (Halal Tourism Services) tamoyillari bo'yicha tayyorlangan xodimlar	✓	
8	Namoz o'qish xonasi / masjid	✓	

**C-kategoriyadagi joylashtirish vositalariga qo'yilgan talablar**

T/r	Xizmatlar	Majburiy	Taqiqlangan
1	Halol taomlar iste'mol qilish imkoniyati (so'rov bo'yicha: halol oshxona yoki mahalliy halol restoranlar ro'yxati)	✓	
2	Minibar ichidagi spirtli ichimliklar (iltimos asosida olib tashlash)	✓	
3	Qibla yo'nalishi belgisi	✓	
4	Mahalliy masjidlarga yo'riqnomalar	✓	
5	Joynamozlar va namoz jadvali (so'rov bo'yicha)	✓	
6	HTS tamoyillari bo'yicha tayyorlangan xodimlar	✓	

3-jadvalda B kategoriyadagi joylashtirish vositalariga qo'yilgan talablar ham keltirib o'tilgan. B kategoriyadagi joylashtirish vositalarida halol taom, halol oshxona, minibar ichida spirtli ichimliklar mavjud emasligi, qibla yo'nalishi belgisi, mahalliy halol restoranlar ro'yxati va yaqin atrofdagi masjidlarga yo'riqnomalar, joynamozlar, HTS (Halal Tourism Services) tamoyillari bo'yicha tayyorlangan xodimlar, namoz o'qish xonasi yoki masjid hamda tahorat qilish uchun suv bilan ta'minlangan hojatxonalar mavjud bo'lishi shart.

C kategoriyadagi joylashtirish vositalariga qo'yilgan talablarga e'tibor qaratamiz (3-jadvalga qarang). C kategoriyadagi joylashtirish vositalarida esa halol taomlar iste'mol qilish imkoniyati (so'rov bo'yicha: halol oshxona yoki mahalliy halol restoranlar ro'yxati), minibar ichida spirtli ichimliklar bo'lmasligi, qibla yo'nalishi belgisi, mahalliy masjidlarga yo'riqnomalar, joynamozlar va namoz jadvali (so'rov bo'yicha), shuningdek HTS tamoyillari bo'yicha tayyorlangan xodimlar mavjud bo'lishi majburiydir.

G'arb mamlakatlaridan tashrif buyuradigan sayyohlar odatda cho'chqa go'shti va spirtli ichimliklar iste'moliga nisbatan erkinroq munosabatda bo'lish lozim deb hisoblasalar-da, turli xildagi tajriba orttirish istagi tufayli halol mehmonxonalarda tunab qolishni ijobiy qabul qilishadi [3]. Shuning uchun ham, faqat dindor musulmonlarga ushbu turdagi mehmonxonalarda dam olishni afzal ko'rishadi deb talqin qilish to'g'ri bo'lmaydi. Binobarin, tadqiqotlarda qayd etilishicha, cho'chqa go'shti va spirtli ichimliklarga ahamiyat bermaydigan hamda yangicha tajriba izlovchi musulmon bo'lmagan sayyohlar ham halol mehmonxonalarda yashashni xush ko'radilar [4].

3-jadvalda halol restoranlar uchun belgilangan talablar keltirib o'tilgan. Unga muvofiq, halol oshxona (yaxshi jihozlangan oshxona), faqat halol taomlar taqdim etilishi, restoranda masjid yoki namoz o'qish xonasi mavjudligi, ramazon davrida saharlik va iftorlik dasturxonlari yozilishi, bolalar uchun o'yin xonasi, katering — restoran tashqarisida ham halol taomlar taqdim etilishi, mehmonlar uchun ekskursiya yoki turistik xizmatlar (masalan, gid xizmatlari) ko'rsatilishi, shuningdek OIC/SMIIC 4 standartiga muvofiq tozalash vositalari (sovun, shampun va h.k.) dan foydalanish uchun qulayliklar yaratilishi majburiy hisoblanadi. Spirtli ichimliklar taqdim etilishi va restoranda uy hayvonlarining bo'lishi qat'iy ravishda taqiqlangan (3-jadval).

### 3-jadval

#### Halol restoranlar uchun belgilangan talablar[5]

T/r	Xizmat turi	Majburiy	Ta'qiqlangan
1	Halol oshxona (yaxshi darajada jihozlangan oshxona)	✓	
2	Faqat halol taomlar taqdim etiladi	✓	
3	Spirtli ichimliklarning taqdim etilishi		✓
4	Restoranda masjid yoki namoz o'qish xonasi mavjudligi	✓	
5	Ramazon davrida saharlik va iftorlik dasturxonlari yozilishi	✓	
6	Bolalar uchun o'yin xonasi	✓	
7	Katering – restoran tashqarisida halol taomlar taqdim etilishi	✓	

T/r	Xizmat turi	Majburiy	Ta'qiqlangan
8	Uy hayvonlari (masalan, masjid yaqinida yoki restoranda uy hayvonlari bo'lishi)		✓
9	Mehmonlar uchun ekskursiya/ turistik xizmatlar taqdim etilishi (masalan, gid xizmatlari)	✓	
10	OIC/SMIIC 4 ga muvofiq tozalash vositalari (sovun, shampun va h.k.) foydalanilishi	✓	

Halol oziq-ovqat masalasi musulmonlar uchun muhim mavzu sanalsa-da, mehmondo'stlik sohasida halol oziq-ovqat mahsulotlariga oid ilmiy adabiyotlar va izlanishlar G'arb olimlari tomonidan yetarli darajada amalga oshirilmagan. 2010-yilgacha bo'lgan davrda halol oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar juda kam bo'lib, mavjudlari ham asosan qishloq xo'jaligi va iste'molchilar, ovqatlanish texnologiyasi va oziq-ovqat fanlari, ovqatlanish madaniyati, marketing, sotsiologiya hamda madaniy antropologiya yo'nalishidagi izlanishlar qamrovi bilan cheklangan [7].

Mohiyatan halol — yagona xalqaro standartning yo'qligiga qaramay — diniy tarkibiy qismga (so'yishdan oldin duo o'qish va boshqalar) qo'shimcha ravishda, gigiyenik amaliyotlar majmuini ham o'z ichiga oladi va HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Points — mahsulot xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan xavfli omillarni tizimli aniqlash, baholash va boshqarishga yo'naltirilgan konsepsiya) bilan bir xil tamoyillarga asoslanadi.

Malayziyada "Halol" sertifikatini olish uchun ariza topshirish jarayoni ko'p vaqt talab qiladi — odatda 6 oydan 10 oygacha davom etadi. Laboratoriya jihozlari ikki asosiy aniqlash qurilmasidan iborat: kimyoviy ajratmalar hamda biotexnologik ajratmalar. Kimyoviy moddalar va ularning hosilalarini tekshirish uchun quyidagi asboblar mavjud: yog'-moy ajratmalar, oqsil-jelatin ajratmalar, spirt ajratmalar, tola, teri va mo'yna ajratmalari.

Biotexnologiya va genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) ajratmalarini tekshirish uchun esa maxsus asboblar qo'llaniladi. Bu, hech shubhasiz, sof diniy talab sifatida qaraladi. Chunki 30 yildan ortiq vaqt davomida dunyo miqyosida GMO faol qo'llanilishiga qaramay, oziq-ovqat tarkibida GMO mavjud bo'lgan mahsulotlarning salbiy ta'siri haqida birorta ham ilmiy asoslangan dalil mavjud emas [13].

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Halol standartlari nafaqat diniy tamoyillarga asoslanadi, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash, iste'molchi huquqlarini doimiy himoya qilish, barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va xalqaro miqyosda savdodagi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Uning asosiy tushunchalarini chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish orqali global iqtisodiyotda halol sanoati mustahkam va barqaror pozitsiyani egallashi mumkin bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdallah A., Rahem M. A., Pasqualone A. The multiplicity of halal standards: a case study of application to slaughterhouses //Journal of Ethnic Foods. – 2021. – T. 8. – №. 1. – C. 7.

2. Akbar J. et al. Global trends in halal food standards: A review //Foods. – 2023. – T. 12. – №. 23. – C. 4200.
3. Battour, M., Hakimian, F., Ismail, M., & Boğan, E. (2018). The perception of non-Muslim tourists towards halal
4. Boğan E. Halal tourism: The practices of halal hotels in Alanya, Turkey //Journal of Tourism & Gastronomy Studies. – 2020. – T. 8. – №. 1. – C. 29-42.
5. OIC/SMIIC 9: 2019 First Edition 21-12-2019
6. Tourism. Journal of Islamic Marketing, 9(4), 823-840
7. Wan Hassan W. M., Awang K. W. Halal food in New Zealand restaurants: An exploratory study //International Journal of Economics and Management. – 2009. – T. 3. – №. 2. – C. 385-402.
8. Pamukcu H., Sariisik M. Suggestions for standardization of halal tourism in hospitality industry //Journal of Islamic Marketing. – 2021. – T. 12. – №. 2. – C. 389-407.
9. Saeed A (2018) Shari'a in Australia. In: Emon AM and Ahmed R (eds.) The Oxford Handbook of Islamic Law. Oxford: Oxford University Press, pp. 751–774.
10. Sh.Sharifova. Halol restoranga ta'sir etuvchi omillar tavsifi. "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali No4(12) 2023
11. Sharifboyeva F. O. Ziyorat turizmini rivojlantirishda islom dinining ahamiyati //International sciences, education and new learning technologies. – 2024. – T. 1. – №. 6. – C. 20-25; <https://www.musulmonlar.com/halol-va-haromni-kim-belgilaydi/>
12. Stark J (2003) The Islamic Debate in Malaysia: The Unfinished Project. South East Asia Research 11(2). IP Publishing Ltd: 173–201;
13. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/26/halal-seeds-certification/>
14. <http://www.halol-uz.islomiy.info/index.php/halol-xarom/385-nimalar-harom-qilindi.html>



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, iyul, 7-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**